(6). Maksetova M.K. Jámiyet informaciyalasıwınıń filosofiyalıq tiykarları. Tashkent, “Innovatsion-Ziyo” baspası, Oqıw qollanba, 2022-jıl. 156-bet.

Mamadaliyeva Husnora Baxodir qizi (Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti; E-mail: sarvarsaid@bk.ru; https://orcid.org/0009-0009-9463-4509)

HAKIM TERMIZIY TASAVVUFIY TA’LIMOTIDA MA’RIFAT TUSHUNCHASINING FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya. *Sharq falsafasi, xususan, Islom mutafakkirlari qarashlarida ma’rifat konsepsiyasi markaziy ahamiyat kasb etuvchi, inson ma’naviy kamoloti uchun muhim hisoblangan tushuncha hisoblangan. Hakim Termiziy falsafiy-tasavvufiy qarashlarida ushbu konsepsiya markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada Hakim Termiziy falsafiy qarashlarida ma’rifat tushunchasining ahamiyati, insonni aqlan va ruhan tarbiyalashda, nafsga qarshi kurashda ma’rifatning roli misollar asosida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sharq falsafasi, tasavvuf, bilish falsafasi, nafs, ma’rifat, qalb darajalari, komillik mezonlari, aql, hissiyot.*

Мамадалиева Хуснора Баходир кизи (Phd докторант Самаркандского государственного института иностранных языков; E-mail: sarvarsaid@bk.ru)

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПЦИИ “МАЪРИФАТ” В СУФИЙСКОМ УЧЕНИИ ХАКИМА ТЕРМИЗИ

Аннотация. *Концепция маърифат в восточной философии, в частности во взглядах исламских мыслителей, занимает центральное место и рассматривается как важный фактор духовного совершенствования человека. В философско-суфийских воззрениях Хакима Термизи данная концепция также занимает особое место. В данной статье на основе примеров раскрываются значение понятия маърифата в философских взглядах Хакима Термизи, а также роль маърифата в интеллектуальном и духовном воспитании человека и в борьбе против нафса.*

Ключевые слова: *восточная философия, суфизм, философия познания, нафс, маърифат, уровни сердца, критерии совершенства, разум, чувства.*

Mamadaliyeva Husnora Baxodir qizi (PhD student at Samarkand State Institute of Foreign Languages; E-mail: sarvarsaid@bk.ru)

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT “MA’RIFAT” IN HAKIM TERMIZI’S SUFI DOCTRINE

Annotation. *The concept of ma’rifat in Eastern philosophy, particularly in the views of Islamic thinkers, occupies a central place and is regarded as an important factor in the spiritual perfection of human beings. This concept also holds a significant position in the philosophical and Sufi teachings of Hakim Termizi. This article explains, through examples, the importance of the concept of ma’rifat in Hakim Termizi’s philosophical views, as well as the role of ma’rifat in the intellectual and spiritual upbringing of a person and in the struggle against the nafs.*

Keywords: *Eastern philosophy, Sufism, philosophy of cognition, nafs, ma’rifat, levels of the heart, criteria of perfection, intellect, emotions.*

Kirish (Introduction). Islom falsafasida, xususan, uning namoyandalari ma’naviy merosida ma’rifat masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Chunki Islom ta’limotida, uning asosiy manbalari – Qur’oni karim va Hadisi shariflarda ma’rifat insonni kamolotga yetaklaydigan, dunyo va oxiratda saodatga yetaklaydigan asosiy tushunchalardan biri sifatida tavsiflanadi. Ma’rifat konsepsiyasi Islom falsafasining zabardast vakillaridan biri hisoblangan Muhammad Hakim Termiziyning tasavvufiy qarashlarida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tushuncha sifatida ta’riflanadi. Alloma o‘z asarlari, falsafiy-merosi orqali ma’rifat, aql va hissiyot munosabatlari, ularning inson bilish jarayonlarida bajaradigan vazifalariga alohida urg‘u beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). Hakim Termiziyning tasavvufiy merosi Sharq falsafasi va tasavvufiy tafakkur tarixida ma’rifat tushunchasining shakllanishi va rivojlanishining muhim nazariy asoslaridan biridir. Uning tushunchasida ma’rifat nafaqat diniy bilim, balki ma’naviy poklanish, ma’naviy kamolot va ilohiy haqiqatni anglash darajasi sifatida ham qaraladi.

Abulhasan Ali ibn Usmon Hujviriyning “Kashf al-Mahjub” asari tasavuf tarixidagi dastlabki nazariy manbalardan biri sifatida alohida ahamiyatga ega. Muallif so‘fiylikning mohiyati, qalb pokligi, ma’rifat va haqiqat tushunchalari haqida batafsil sharhlar beradi. Ushbu manbada ma’rifat qalb orqali ilohiy haqiqatga erishish sifatida tushuniladi. Bu jihatlar Hakim Termiziy qarashlariga xos bo‘lib, qalb, aql va ilohiy nur haqidagi qarashlarni falsafiy tahlil qilish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi[2].

Mahalliy olimlardan U.Uvatov va J.Cho‘tmatovning “Hakim Termiziy” deb nomlangan risolasi mutafakkir hayoti, tasavvufiy qarashlarini va islom tafakkuri tarixidagi o‘rnini o‘rganadi. Mazkur risolada Hakim Termiziyning ma’rifat, qalb, ruh va ilohiy hikmat haqidagi qarashlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Ushbu manba Hakim Termiziy ta’limotining konseptual jihatlarini yorituvchi asosiy ilmiy manbalardan biridir[5].

Mirzo Kenjabekning “Termiz tazkirasi” asari Termiz vohasidan chiqqan buyuk olimlar va mutafakkirlarning faoliyatini falsafiy nuqtayi nazardan yoritib beradi. Ushbu asar Hakim Termiziyning ilmiy va ma’naviy merosi, uning so‘fiylik tarixidagi o‘rni va keyingi mutafakkirlarga ta’siri haqida muhim ma’lumotlarni beradi. Ushbu manba bizga mutafakkir davrining ijtimoiy-madaniy muhitini va uning ma’rifat haqidagi qarashlarini shakllantirgan tarixiy sharoitlarni tahlil qilish imkonini beradi[4].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Hakim Termiziy tasavvufiy ta’limotida ma’rifat tushunchasining falsafiy tahlili bag‘ishlangan mazkur maqolada ilmiy tadqiqotning analogik tahlil, analiz sintez, germenevtik tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Hakim Termiziyning ilmiy-falsafiy merosini tahlil qilish orqali alloma ma’rifat konsepsiyasini uchta tushuncha bilan uzviy bo‘gliq holda tasavvur qilganligi oydinlashadi. Haq, adl, va sidq. Bu borada alloma shunday fikrni ilgari suradi: Biz Alloh taoloning dini uchta asos ustiga qurilganini topdik: haq, adl va sidq. Haq – a’zolarga, adl – qalblarga, sidq esa aqllarga taalluqlidir. Qiyomat kuni amallarni tortish uchun tarozi keltirilganda, yaxshiliklar haq pallasiga, yomonliklar adl pallasiga qo‘yiladi, sidq esa tarozining tilida bo‘lib, u orqali yaxshiliklarning yomonliklardan ustunligi aniqlanadi. Bu Alloh taoloning bandalardan rozi bo‘lishining nihoyasidir. Har bir kishining ishlarida ushbu uch narsa jam bo‘lsa, u komil bo‘ladi. Agar amaldan haq yo‘qolsa, uning o‘rnini botil egallaydi. Agar adl yo‘qolsa, uning o‘rnini zulm bosadi. Agar sidq yo‘qolsa, uning o‘rnini yolg‘on egallaydi. Bu uch amal ma’rifatning askarlaridir. Ularning ziddi bo‘lgan uch narsa esa havoyi nafsning askarlari hisoblanadi [1;169-b.].

Bu Hakim Termiziyning ma’rifat, uning unsurlari va ma’rifat tayanadigan asoslar borasidagi qarashlari hisoblanadi. Mutafakkir ushbu mulohazalari orqali koinot va uni boshqarib turuvchi hikmat haqida tafakkur qildi. So‘ng inson va uning yaratilgan fitratini tahlil qiladi. Keyin inson bilan koinot o‘rtasidagi dialektik munosabatlarni ko‘rib chiqdi. Alloma nuqtai nazariga ko‘ra, bu aloqa ma’rifatning askarlari sifatida tavsiflangan haq, adl va sidq ustiga qurilgan. Bu uch asos inson fitratidagi koinot bilan bog‘lovchi uch jihatga – a’zolar, qalb va aqlga muvofiq keladi.

Inson va koinot yaratilishidagi hikmat hamda insonning bu koinotdagi xulqi aynan inson yaratilgan fitratga va Alloh muqaddas din qilib belgilagan hamda inson zimmasiga farz qilgan ushbu uch tomonlama aloqaga muvofiq kechadi. Demak, haq koinot o‘z ichiga olgan hikmat va fitratni ifoda etuvchi dinning asosiy unsurlaridan biridir [1;178-b.].

Demak, ushbu uch asos – haq, adl va sidq – Qiyomat kuni inson amallariga hukm chiqarishning asosiy mezonlaridir. Insonning oqibati ham shu orqali ma’lum bo‘ladi. Buning asosi esa amallarning oliy hikmat va ilk fitrat talablariga muvofiq bo‘lishidir. Sidq vositasida Alloh bilan xalq o‘rtasidagi hujjatning asosidir. U orqali yaxshiliklarning yomonliklardan ustunligi aniqlanadi. Demak, sidq yaxshilik bilan yomonlik, hidoyat bilan zalolat o‘rtasini ajratuvchi mezondir. U amallar orasidagi farqni belgilaydi. Shu unsurlarda zalolat bilan hidoyat, yaxshilik bilan yomonlik, haq bilan botil, xato bilan to‘g‘ri o‘rtasidagi ochiq farq mujassamdir. Biroq bu hal qiluvchi mezon asosan sidqda jamlanadi. Alloma qarashlariga ko‘ra, sidq ma’rifatning so‘nggi bosqichidir. Unga avvalgi ikki bosqich kelib tugaydi, unda birlashadi va uning ichiga singib ketadi. Shuning uchun sidq ma’rifatning barcha unsurlariga teng va uning ramzi hisoblanadi. Yaxshiliklar pallasining ramzi bo‘lgan haq va yomonliklar pallasining ramzi bo‘lgan adl esa bu tarozida ma’rifat unsurlaridan boshqa bir ma’noga ishora qiladi [2;16-b.].

Hakim Termiziyning ma’rifat borasidagi qarashlariga e’tibor qaratsak, unda insonning axloqi, xulqi va amallar kelib chiqadigan ichki sifatlariga keng o‘rin ajratilganligini ko‘ramiz.

Hakim Termiziy nuqtai nazariga ko‘ra ma’rifat mutlaq va umumiy bilim ma’nosini anglatmaydi, balki maxsus ma’noga ega. Bu ma’noni tushunish osonroq bo‘lishi uchun shuni bilish kerakki, u aqlni ikki turga bo‘ladi:

•fitrat aqli;

•iymon aqli [3;82-b.].

Fitrat aqli barcha insonlarda mavjud bo‘lgan umumiy aqldir. Odamlar bu aqlda jismoniy yaratilishdagi farqlari kabi bir-biridan farq qiladilar. Bu aqlning manbai his-tuyg‘u va tabiiy idrokdir. Iymon aqli esa faqat tavhid ahliga xos bo‘lgan aqldir. Uning manbai basirat nuri va iymondir. Alloma nazdida ma’rifat ay-

nan mana shu ikkinchi turdagi idrokka tegishlidir. Barcha insonlar o‘rtasida mushtarak bo‘lgan birinchi aql – fitrat aqli orqali hosil bo‘ladigan idrok esa uning nazdida ma’rifat doirasiga kirmaydi. Demak, Hakim Termiziy falsafiy ta’limotida ma’rifat din asoslari va ular bilan bog‘liq ta’limot, suluk va e’tiqodga taalluqlidir. Bu ham ijtimoiy-amaliy sohada, ham nazariy sohada namoyon bo‘ladi. Balki u inson idrokining, barcha odamlar uchun umumiy bo‘lgan tabiiy idrokdan tashqari, qolgan barcha jihatlarini qamrab oladi. Mana shu doira ichida, ya’ni, Hakim Termiziy ma’rifati chegaralarini belgilab, uni oddiy nazariy bilim va falsafiy bilishdan ajratib turgan doira ichida ma’rifatning barcha sho‘balarini qamrab olishga harakat qiladi.

Ushbu tahlillar asosida aytish mumkinki, Hakim Termiziyning tasavvufiy qarashlarida ma’rifat tushunchasi insonning ma’naviy kamoloti, qalbning poklanishi va ilohiy haqiqatni anglash jarayoni bilan uzviy bog‘liq sifatida talqin qilinadi. Mutafakkir ma’rifatni shunchaki intellektual bilim darajasidan yuqori qo‘yadi va uni qalb, idrok, haqiqat va iymon orqali shakllangan ilohiy idrok sifatida talqin qiladi. Uning fik-richa, ma’rifat insonni istak va intilishlardan tozalaydigan va haqiqiy kamolotga va ilohiy haqiqatga olib boradigan ma’naviy va ichki yo‘l bo‘lib xizmat qiladi [4;281-b.].

Xulosa va takliflar. (Conclusion /Recommendations). Tahlil qilingan manbalar Hakim Termiziy ta’limotining tasavvuf falsafasidagi o‘rnini, xususan, ma’rifat tushunchasining epistemologik, axloqiy va metafizik mohiyatini yoritish uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Tasavvuf ta’limoti olimlarining qarashlari bilan qiyosiy tahlil Sharq tasavvufiy tafakkuridagi Hakim Termiziy ta’limotining o‘ziga xos jihatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi. Xususan, uning “haqiqat”, “adolat” va “rostgo‘ylik”ka asoslangan ma’rifat nazariyasi insonning ichki dunyosini, axloqiy yetukligini va ilohiy haqiqat bilan bog‘liqligini tushuntiruvchi to‘liq tasavvufiy-falsafiy tizim sifatida paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, Hakim Termiziy merosi inson ma’naviyati, axloqiy tarbiya va komil shaxs tushunchasini o‘rganishda muhim ilmiy-falsafiy ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Uning ma’rifatparvarlik haqidagi qarashlari esa zamonaviy falsafa, tasavvufshunoslik uchun muhim nazariy manba bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Abdulhasan Husayniy. Al-Ma’rifa inda Hakim Termiziy. Qohira, Doru-l-kutub arabiy, 2014, 470-bet.

(2). Abulhasan Ali ibn Usmon Hujviriy. Kashf ul-mahjub. Qohira, Al Majlis al A‘la as Siqofa, 2007, 504-bet.

(3). Fariduddin Attor. Tazkirat ul-avliyo. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2013, 464-bet.

(4). Mirzo Kenjabek. Termiz tazkirasi. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2017.

(5). Uvatov U., Cho‘tmatov J. Hakim Termiziy. Toshkent, Shamsiddinxon Boboxonov, 2021, 104-bet.

Kuyliyev Bobur Tulkinovich (Toshkent davlat Tibbiyot universiteti “Ijtimoiy fanlar, pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

RAQAMLI PLATFORMALAR SHAROITIDA MEHNAT SUBYEKTI TRANSFORMATSIYASI: KLASSIK MEHNAT NAZARIYALARINING CHEGARALARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida mehnat faoliyatining yangi shakllari hamda mehnat subyektining transformatsiyasi tahlil qilinadi. Raqamli platformalar, algoritmik boshqaruv va masofaviy mehnat shakllarining kengayishi natijasida an’anaviy mehnat munosabatlari tubdan o‘zgarib borayotgani ko‘rsatib beriladi. Maqolada klassik mehnat nazariyalari, xususan, Maks Veber va Emil Dyurkgeym qarashlari raqamli platforma iqtisodiyoti sharoitida qay darajada dolzarb ekani tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli jamiyat, raqamli platformalar, mehnat subyekti, algoritmik boshqaruv, gig iqtisodiyoti, masofaviy mehnat, raqamli kapitalizm, mehnat transformatsiyasi.*

ТРАНСФОРМАЦИЯ СУБЪЕКТА ТРУДА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВЫХ ПЛАТФОРМ: ГРАНИЦЫ КЛАССИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ ТРУДА

Аннотация. *В данной статье анализируются новые формы трудовой деятельности и трансформация субъекта труда в цифровом обществе. В результате расширения цифровых платформ, алгоритмического управления и дистанционных форм работы показано, что традиционные трудовые отношения кардинально изменяются. В статье анализируется, насколько классические теории труда, в частности взгляды Макса Вебера и Эмиля Дюркгейма, актуальны в контексте экономики цифровых платформ.*

Ключевые слова: *цифровое общество, цифровые платформы, субъект труда, алгоритмическое управление, экономика свободного заработка, удаленная работа, цифровой капитализм, трансформация труда.*